

**ANNEMARIYE SHIMMEL DUNYOQARASHI SHAKLLANGAN IJTIMOIIY MUHIT
VA UNING OLIMA ASARLARIGA TA'SIRI**

**СОЦИАЛЬНАЯ СРЕДА, ФОРМИРОВАННАЯ МИРОВОЗЗРЕНИЕ АННЕМАРИЕ
ШИММЕЛЯ, И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ТРУДЫ УЧЕНОГО**

**THE SOCIAL ENVIRONMENT THAT FORMED ANNEMARIYE SCHIMMEL'S
WORLD VIEW AND ITS INFLUENCE ON WORKS OF THE SCIENTIST**

Po'latova Zubayda Abduravupovna

Navoiy davlat pedagogika instituti doktoranti

p.zubi@mail.ru

+998913364397

Annotatsiya: Ushbu maqolada nemis islomshunos olimasi Annemariye Shimmel yashagan ijtimoiy muhit haqida so'z boradi. Yana uning biografik asari bo'lmish "Tong vat tun mamlakati. Mening G'arbu Sharqdagi hayotim"dan mavzuga oid ba'zi o'rinlar tahlil qilinib muhokamaga tortilgan va tegishli xulosalar berilgan.

Аннотация. В данной статье рассказывается о социальной среде, в которой жила немецкая исламская ученоя Аннемари Шimmel. Также были проанализированы и обсуждены некоторые относящиеся к теме отрывки из её биографического труда «Восток и Запад. Моя жизнь на Востоке и Западе» и сделаны соответствующие выводы.

Annotation. This article describes the social environment in which the German Islamic scholar Annemarie Shimmel lived. Some relevant passages from her biographical work "East and West. My life in the East and West" were also analyzed and discussed and the corresponding conclusions are drawn.

Kalit so'zlar: ijtimoiy muhit, islom, asar, ijod, Sharq, dissertatsiya, she'riyat, Ikkinchi Jahon urushi

Ключевые слова: социальная среда, ислам, труд, творчество, Восток, диссертация, поэзия, Вторая мировая война

Key words: social environment, Islam, work, creation, East, dissertation, poetry, World War II

KIRISH

1922-2003-yillarda yashab ijod qilgan nemis islomshunos olimasi Annemariye Shimmel merosini pedagogik-nazariy jihatdan o'rganishga doir izlanishlar avvalo u yashagan davr, ijtimoiy muhit va uning olima asarlariga bo'lgan ta'siri o'rganishni taqozo etadi. Izlanishlar natijasida shu aniqlandiki, Annemariye Shimmelning hayoti, pedagogik va ijodiy faoliyati uning chet ellarga qilgan ijodiy, ilmiy safarlari bilan bog'liq. Bu haqida olima o'z biografik asarida to'liq ma'lumotlar bergan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Annemariye Shimmelning hayoti va ijodi haqida so'zlaydigan. olima umrining so'ggi yillarida yozgan ushbu asar "Tong vat tun mamlakati. Mening G'arbu Sharqdagi hayotim" hisoblanadi. Ushbu asar tahlilidan kelib chiqib aytish mumkinki, Annemariye Shimmelning ko'p qirrali qiziqishlari uning nafaqat Yevropa, balki sharq tillarini ham o'rganishiga sabab bo'lgan. Asarda keltirilishicha, u yoshligidanoq arab tilini o'rganishga kirishgan. U yana hind, fors, urdu, pushtu, sind, hamda o'zbek tilini ham o'rgangan. U yuzdan ortiq asarlar muallifidir. Ushbu ma'lumotlarni kengroq muhokama qilishga kirishamiz.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shimmel yoshligidanoq o'z uyida mehribon muhit yaratish baxtiga muyassar bo'lgan, u tasvirlaganidek: "...Shunday qilib, men go'zal muhitda o'sganman, ota-onam o'rtasidagi

keskinlikni hech qachon sezmaganman; Men mehribon muhitdan rohat olardim.”¹. Uning uyi musiqa bilan emas, balki she’riyat va adabiyot bilan to’lgan edi. Uning ota-onasi ham she’rlarga bo’lgan ikkitomonlama muhabbati tufayli tanishgan edilar. Ajab emaski, she’riyatga bo’lgan mehr ularning qizining hayot yo’lini avval boshdanoq belgilab bergan bo’lsa.

Kattaroq bo’lganida otasi har shanba tushdan so’ng unga kitoblar o’qib berardi. Onasi esa ularga dramalar va pyesalar o’qib berardi. Chunki onasi asarlarni o’z tasavvur olami bilan jonlantira olardi.

Yoshligida buyrak xastaligiga chalinib shamollab qolganida, Shimmel uyda o’qishga majbur bo’lgan. Kitoblar orasida bir ertak kitob unga hal qiluvchi ta’sir ko’rsatgan. Kitobda jahon ertaklari jamlangan bo’lib, unga ayniqsa “Padmana va Hasan” ertagi yoqib qoladi. Ertak bir hind donishmandining Damashqlik bir bolani donishmandlikning yuqori cho’qqisiga olib chiqqani haqida edi. Donishmand bolani nihoyat ajoyib saltanat orqali bir favvoraning ostiga boshlab borgan. Qimmatbaho marvaridlarga to’la bir xazinada dunyoning eng buyuk shahzodasi yotardi va uning katafalkasi² ustiga shunday yozilgan: “ Odamlar uxlaydilar va o’lganlarida esa uyg’onadilar.” Bu so’z unga chaqmoq urgandek ta’sir qilgan. O’n yillar o’tib u bildiki, bu so’zlar Muhammad payg’ambarga tegishli bo’lib, uni so’fiylar va islom tasavvufchilari ayniqsa yaxshi ko’rgan. Shu paytda bu uning yo’li: Sharq, tasavvuffiy donishmandlik sharqi, hali uncha aniq shaklda bo’lmasa-da, uning ko’zlagan manzili edi. Hind donishmandining musulmon bola bilan uchrashuvi, u keyinroq anglab yetganidek, uning kelajakdagi asosiy yo’nalishi – hind-musulmon madaniyati bo’lgan.

Uning Berlin universitetida o’qish yillari ikkinchi jahon urushi vaqtiga to’g’ri keldi. Yozgi ta’tilida unga ustoz Richard Hartmann doktorlik dissertatsiyasini yozish uchun ayni vaqti deb aytadi. Ammo u ta’til vaqtida boshqa talabalar qatori majburiy mehnatga chaqiriladi. Fabrikada katta qiyinchiliklarga qaramay u og’ir mehnat qiladi. Birinchi maoshiga Mavlono Rumiyning “Masnaviy” sini sotib oladi.

Annemariye Shimmelning universitetda ta’lim bergan ustozlari ular turli xil bo’lishiga qaramay, talabalar uchun ideal tarzda bir-birini to’ldirgan. Richard Hartmann islom tarixi va geografiyasining eng yaxshi bilimdoni bo’lgan. Uning ikki o’g’li urush vaqtida halok bo’lgan bo’lsa-da, u hech qachon hech kimga shikoyat qilmagan. U namunali o’qituvchi bo’lgan. U murakkab arabcha va usmoniy-turkcha matnlarni o’qishga qiynaladigan kam sonli talabalarga nisbatan sabrli bo’lgan.

Hans Haynrich Sheder ismli ustoz esa umuman boshqacha edi. U iqtidorli notiq bo’lgan ediki, u o’z jilodori ma’ruzalari bilan o’z tinglovchilarini hattoki ekstaz³ holatiga solib qo’yardi.

Schimmelning ijodida ustoz Ernst Kyunelning ham ta’siri katta bo’lgan. Islom sharqi haqida keng bilimlarga ega Kyunel unga islom san’atining jozibasini va go’zalligidan saboq bergan. Shu sababli u hattotlik san’atiga ham qiziqqan.

Sevimli ustozlaridan biri Annemariye fon Gabaindan u turkshunoslik bo’yicha tahsil olgan.

U ustoz Shederdan Rumiyning “Masnaviy”sini o’qishi haqida maslahat qilganda, ustoz unga undan ko’ra Reynold A. Nicholsonning Rumi devondan kichik bir saylanmani qayta ishlashini va shu bilan brga Luis Massignonning fransiz tilida yozilgan “La Passion de’ al-Hallaj” asarini o’qishini aytadi. Devonni o’qish jarayonida u she’rlardan juda qattiq ta’sirlangan va shu paydan boshlab u Rumiyni tushuna boshlagan va umrining oxirigacha unga sodiq qolganligini, uning Konyadaga qabrini har safar ziyorat qilganini o’z asarida yozib qoldirgan.

¹Annemarie Schimmel. Morgenland und Abendland. Mein west-oestliches Leben. V.C.H.Beck Muenchen. S 14.

²“Katafalk” so’zi fransuz tilidan olingan bo’lib, marhumning tobuti joylashtirilgan, o’tayotganlar hurmat ko’rsatishi uchun baland qilib qurilgan joyni anglatadi. (<https://tr.wikipedia.org>)

³Ekstaz- yun. extasis – zavqlanish; haddan tashqari zavqlanish, mahliyo bo’lib qolish (<https://uz.wiktionary.org/>)

U 17 yoshida fors tilini ham o'rgangan va universitetda tehsil olayotganda mashhur ismoiliy faylasufi Nosiri Xusrovning (vafoti 1072 yil) "Safarnoma" asarini o'rgangan. Arab, fors va turk tillarini, islom tarixi va tasavvufni mukammal bilganligi uning Sharq va Islomga katta qiziqishi, samimiy munosabati va sodiqligini isbotlaydi.⁴

1941-yilda u islomshunoslik yo'nalishi bo'yicha Richard Hartmann rahbarligida "O'rta asr oxirlarida Misrda xalifa va qozi" nomli dissertatsiyasini yozib, islomshunoslik bo'yicha doktorlik darajasini oldi. Urushning so'nggi oyida Berlinda "Oxirgi mamluklar davrida harbiy qatlamning tuzilishi" nomli dissertatsiyasi 1946-yil yanvar oyida Marburg universitetida oxiriga yetkazildi.

Ikkinchi jahon urushi uning hayotiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. O'sha yillarda u o'qishni tugatib Tashqi ishlar byurosida o'n to'qqiz yosh bo'lishiga qaramay, ilmiy yordamchi lavozimida ishlagan. Shu yerda uning hamkasblaridan biri keksa janob Baumert uni Jamila (arab tilida chiroyli degan ma'noni) 1943-yilda Berlinga birinchi bomba hujumi bo'lganda u yaqin dugonasi Hankani yo'qotgan edi. Bomba ta'sirida uning uyi ham boshqa binolar qatori kultepaga aylangan edi. U shu paytlarni eslab, qanday omon qolganligimizni bilmayman, deb yozadi. Urushning so'nggi yillarida uning otasi - qo'lga biror marta qurol olmagan odam ham xalq qatori hujumga yuborilgan edi. Otasining onasiga aytishicha, yigirma oltita erkakka jang qilish uchun atigi 3 ta qurol berilgandi. Otasi bu hujumda halok bo'ladi.

1951-yilda Shimmel yigirma uch yoshida doktorlik dissertatsiyasini dinlarning kashshof tarixchisi Fridrix Hayler rahbarligida islom tasavvufiga oid ikkinchi doktorlik darajasini oldi.⁵ Bu urushdan keyingi birinchi doktorlik dissertatsiyasi edi, yana ayol kishi tomonidan yozilgan edi. To'plangan ma'lumotlardan shu aniq bo'ladi, Annemariye Shimmel yoshligidan ilm bilan shug'ullangan olim bo'lgan. Hattoki uning erkak hamkasblari ham uning mavqeiga havas qilishgan.

Nemis islomshunosi, yozuvchi va tarjimoni Shtefan Vaydner (1967-yilda tug'ilgan) o'zining "Tasavvuf va estetika. Annemariye Shimmel va uning Islomga innovatsion qarashlari" nomli maqolasida shunday yozadi: ...Va men, albatta, unga havas qilaman, bu uning yutuqlari tufayli emas. Aslida, u nafaqat shunchaki muvaffaqiyatli inson emas, balki faqat erkaklar ustunlik qilgan muhitda muvaffaqiyat qozongan ayol hamdir... Annemariye Shimmel xristianlik dinining praslav oqimiga mansub birinchi islomshunos olim edi. U kelguncha bu sohada ayollar yetishmasdi. Islom ilmlarini ayollar tomonidan o'rganilishini u odatiy ishga aylantirdi. Uning orqasidan ko'plab islomshunos ayollar yetishib chiqdi, shu o'rinda Gudrun Shubert, Rotraut Vilandt, Vibke Valter, Almu Gizelarni nomini aytish o'rinlidir.⁶

Vaydner yana uning undan ko'ra ko'proq tilni bilishiga havas qiladi. Shimmel o'z tarjimalari va kitoblari bilan islomshunos olim sifatida Vaydner ijodiy faoliyatiga yo'l ochdi. Vaydner ikki munosabatda uning izidan borgan. Birinchidan, Germaniya va arab dunyosi o'rtasidagi munosabatlarni qo'llab-quvvatlaydigan "Fikr va san'at" ("Fikrun va Fann") jurnalidagi ishi edi. Bu nashriyotga 1960-yilda Albert Tayl va Annemariye Shimmel tomonidan asos solingan. 2001-yildan boshlab Vaydnerga shu jurnalning bosh redaktori lavozimi topshirilgan.

Ikkinchidan, Shimmel nafaqat Sharq klassikasi bilan, balki hozirda yashab turgan shoir va yozuvchilar ijodiga ham qiziqqan. Bu G'arb uchun yangilik bo'lgan. Gyote, Fridrix Rukkert va boshqa ko'plab shoir va yozuvchilar faqat allaqachon o'tib ketgan shoir, faylasuflar o'tmishi

⁴Chishti, siddiq ali & Khan, Sharafat. (2023). Annemarie Schimmel: A Study of her Life and Academic Quest for understanding Islam and Muslim Culture. Al-Qamar. 1-12. 10.53762/alqamar.06.01.e01.

⁵„Schimmel, Annemarie“, in: Neue Deutsche Biographie 22 (2005), S. 777-778 [Onlinefassung]; URL: <http://www.deutsche-biographie.de/>.html

⁶<https://magazines.gorky.media/wp-content/uploads/2022/11/nz-144-168-182-weidner.pdf>

bilan qiziqqan. Shimmel esa 1975 yildayoq zamonaviy arab poeziyasi tarjima antologiyasini tuzgan.

Annemariye Shimmel o'zining turk, eron, pokistonlik tanishlari va do'stlariga "ayg'oqchilar" dek qaramagan. Uning "Mening G'arbu sharq hayotim" nomli biografik asari uning barcha musulmon do'stlariga bag'ishlangan umrining so'ngi yillarida yozilgan xotira kitobidir.⁷

Eronshunoslik bo'yicha olim Burzine K.Waghmar ham uning pedagogik faoliyati va boy merosini yuksak baholab shunday deydi: "... U iqtidorli o'qituvchi, Islomning nozik tarjimoni va madaniyatlararo muloqotda bir ko'prik edi".⁸

Turkiyada o'qituvchilik (1952-1959)

Shimmel 1954-1959 yillarda Turkiyaning Anqara universiteti Islom dini fakultetining dinlar tarixi bo'yicha to'liq professori etib tayinlandi. Turkiyada besh yil (1954-59) qolib, u o'ziga bo'lgan munosabatni kuchaytirdi. mashhur so'fiy shoir Mavlono Rumi maqbarasini tez-tez ziyorat qilgan. Bu davrda u o'zining sevimli mavzusi bo'lgan hind-musulmon mutafakkiri va shoiri Muhammad Iqbol (vaf. 1938) ustida ham ishladi. Shimmel Mavlono Rumiyaning ilhomlangan, chunki u o'z tarjimai holida Mavlono Rumiyaning Konyaga kelishini shunday tasvirlagan; "... Sharqdan kelganlar orasida otasi mashhur olim bo'lgan, oilasini Balxdan O'rta Osiyo hududlari orqali Anadoluga olib kelgan yosh Mavlono Jaloliddin Rumi ham bor edi. Otasi 1231 yilda Konyaga chaqirildi va o'g'li unga ergashib, ko'p sonli ilohiy maktablardan biri bo'lgan madrasada ilohiy fanlardan dars berdi bu bilimdon domlani islom olamining vajdotli shoiriga aylantirdi."⁹

Atlantikaning narigi tomoni (1967-1992)

Garvardda dars berayotganda u turli konferentsiyalarda qatnashish uchun Shimoliy Amerikaning turli qismlariga tashrif buyurdi. Ayni paytda u dinga fenomenologik yondashuvni yaxshi ko'rar ekan: "Men dinga fenomenologik yondashishni o'rganganimda, bu dinlarning tashqi ko'rinishlarini tushunishni osonlashtiradigandek tuyuladi va izlovchini har bir dinning qalbiga asta-sekin yo'naltiradi". Annemariye Shimmel yigirma besh tilda o'qishi va yozishmalar olib borishi va o'n tilda avvaldan rejalashtirilmagan ma'ruzalarni samarali o'qish qobiliyatiga ega bo'lganligi sababli uning turli tillarda 100 dan ortiq asari bor.¹⁰

Shimmel Sharqning boy tajribasiga ega edi, chunki u turli joylarni ziyorat qilishni juda yaxshi ko'rardi va musulmon urf-odatlarini va an'alarini chuqur anglab yetish uchun mavjud imkoniyatlardan unumli foydalangan. Chunki u har qanday marosim amaliyotining tashqi dunyosini tadqiq qilish va undan tashqariga chiqish orqali Islomning asl mohiyatini taqdim etishi kerak edi. U turli universitetlarda ma'ruzalar o'qish, elchilar bilan uchrashish va islom dini tarixiga oid joylarni ziyorat qilish uchun o'n uchdan ortiq mamlakatlarga tashrif buyurdi.

U Afg'onistonda ham bo'lgan va o'z kitobida tarixiy voqealar, mintaqaning taniqli faylasuflari va shoirlari haqida fikr yuritgan. Annemariye Shimmel islomni o'rganishga katta qiziqish bildirgan. Shunday qilib, u asta-sekin Islomga, Pokistonga va Iqbolga bog'lanib qoladi. U Iqbol bilan ingliz sharqshunosi Reynold A. Nikolson tomonidan yozilgan "Islamica" jurnalida

⁷ <https://magazines.gorky.media/wp-content/uploads/2022/11/nz-144-168-182-weidner.pdf>

⁸ https://www.academia.edu/28225554/Annemarie_Schimmel_In_The_Guardian_6_Feb_2003_p_24?f_r=195817

⁹ Annemarie Schimmel. *Morgenland und Abendland. Mein west-oestliches Leben*. V.C.H.Beck Muenchen, 2002

¹⁰ Burzine K. Waghmar, "Professor Annemarie Schimmel (April 7, 1922 to January 26, 2003)," *Journal of the Royal Asiatic Society* 1, no. January (2003): 377-79.

<https://doi.org/10.1017/S1356186303009866>.

maqola orqali tanishdi.¹¹ Shuningdek, u “Javidnoma”ni nemis va turk tillariga tarjima qilgan va bu uning Pokistonga taklif qilinishi uchun manba bo‘lgan.

U Turkiyani tark etganidan keyin Pokiston uning asosiy ish sohasi bo‘lib qoldi. U Pokistonga qariyb o‘ttiz marta tashrif buyurdi va mamlakatning turli hududlari bilan tanishdi, nafaqat kichik maqbaralarga ega bo‘lgan Sind dashtlari, balki keyingi yillarida Shimoliy hududlardagi tog‘lar bilan ham tanishdi. Og‘a Xon VI ishtirok etgan marosimda unga mamlakatning eng oliy fuqarolik belgisi - Hilol-i Pokiston mukofoti topshirildi. U Xunjabrov tomon yo‘l oldi. Bundan tashqari, u ba‘zan Nanga Parbat bo‘ylab yosh Hind vodiylariga parvozda (vertolyot bilan) sayohat qildi.

Uni Pokiston Milliy televideniyesidagi doimiy suhbatlaridan tanigan juda ko‘p odamlarning hamkorligi uni Pokistonni o‘z uyidagidek his qilishiga sabab bo‘ldi. U Sind universiteti, Quid-e-Azam universiteti va Peshovar universitetlari tomonidan fan nomzodi ilmiy darajasi bilan taqdirlandi. U bundan xursand bo‘ldi va faxrlandi. Qolaversa, Pokistonga bo‘lgan samimiy munosabati va Pokistonga qilgan ajoyib xizmatlarini e‘tirof etgani uchun Lahorda muhim prospektga uning nomi berilgan. 1992 yildan so‘ng Annemariye Shimmel Rim, Parij va London kabi Yevropa grafliklarida bo‘ldi. U 1992 yilda Gifford ma‘ruzalari to‘plamida insonning ma‘naviy rivojlanish tarixiga oid ma‘ruzalar o‘qish uchun tanlangan. Ushbu ma‘ruzalarga asoslanib, uning “Xudoning alomatlarini ochish” kitobi tuzilgan.¹²

U islomni juda yaxshi ko‘rardi va agar biror narsani yaxshi ko‘rmaguningizcha, uni to‘g‘ri tushunib bo‘lmaydi, deb o‘ylaydi, u Avgustinning so‘zlaridan iqtibos keltirib shunday yozadi: “Inson biror narsani qanchalik sevsa, uni shunchalik keng tushuna oladi.”¹³

Uning bolaligidan Sharq olamiga muhabbati baland bo‘lganligi bizga yuqoridagi ma‘lumotlardan ma‘lum. Ayniqsa u nemis shoiri, filolog va sharqshunosi Fridrix Rukkertning turli sharq tillaridan qilingan tarjimalarini o‘zi uchun kashf etadi. Rukkertning Jaloliddin Rumiyning “Shams Tabriziy” devonidan juda zavqlangan, chunki tarjimon g‘azallarning tuzilish shaklini ham nemis tiliga olib kirgan. Rukkert tarjimalari shakl va ruh jihatidan keyinchalik qilingan for tilining tasviriy ifodalari va islom tasavvufini zo‘rg‘a tushunadigan “tarjimonlar” ning ishlaridan ko‘ra asl nusxasiga yaqinroq edi. Rukkertga esa ikkalasi ham tanish edi va u Shimmel uchun yo‘ldagi yo‘ldosh kabi bo‘lib qolgan edi. 1965 yilda Shimmel Rukkert mukofoti bilan birinchi bo‘lib taqdirlangan. Rukkert mukofoti uning yagona adabiyot sohasidagi mukofoti bo‘lib qolmadi. 1974 yilda u tarjimalari uchun Til va she‘riyat Akademiyasining Yohan-Haynrix-Fos mukofoti, keyinchalik Gratsda Gyote juda minnatdor bo‘lgan, Rukkertning ustози bo‘lgan sharq kuychisi Josef fon Hammer-Purgstall tavalludining ikki yuz yillik yubileyi marosimida Hammer-Purgstall oltin medali bilan mukofotlandi.

Shimmelning pedagogik faoliyatiga nazar tashlasak, u bir qancha universitetlarda tasavvuf, dinlar tarixi va bir qancha shu sohadagi fanlardan dars bergan. U ma‘ruza o‘qiganda ko‘zlarini yumgan holatda Sharqning maftunkor rivoyat va afsonalarini zavq bilan hikoya qilib berardiki, bu holat uning talabalarida katta taassurot qoldirgan. Shogirdlaridan biri unu shunday xotirlaydi:

Shimmel vafot etganda dunyo taniqli olim va g‘ayrioddiy insonni yo‘qotdi. Garvarddagi bakalavriat va aspiranturada o‘qigan paytlarimda u mening ustozim bo‘lgan va u menga va uni taniganlarning barchasiga qanchalik mehribon, muloyim va g‘amxo‘r bo‘lganligi haqidagi xotiralar xayolimdan joy olgan. Yillar davomida u menga va butun dunyodagi ko‘plab

¹¹R.A.Nikolson -1868-1945-yillarda yashab ijod qilgan ingliz sharqshunos olimi .

¹²Annamarie Schimmel, Deciphering the Signs of God: A Phenomenological Approach to Islam Gifford Lectures, (Scotland: Edinburgh University Press, 1994).

¹³Annemarie Schimmel.Morgenland und Abendland. Mein west-oestliches Leben. V.C.H.Beck Muenchen. S 327

do'stlariga doimo sodiq va saxiy bo'lib qoldi. Men bunday eng iste'dodli va aziz olim va eng aziz do'stlarni qayg'u va chuqur minnatdorchilik bilan yodga olaman".

...U haqidagi xotiram buyuk ustozning xotirasi. Nosir Xusravning o'zi tarjima qilgan misralari singari u: [...] eslatmalar va qog'ozlar bog'ida eng yaxshi ma'nolardan mevalar va atirgullarni olib kelib, nafis ifodalardan yoqimli daraxtlarni yaratib, nasr va nazmlardan shirin o'tlar va sumbullar ekdi.¹⁴

Uning tarjimai holi bilan tanishib shunga amin bo'ldikki, u o'z hayotidan mamnun bo'lgan va har doim hamma narsa uchun minnatdor bo'lgan: "Men shukur qilishim kerak, kotibsiz, yordamchisiz, kompyutersiz, mashinasiz, varaqsiz yoki sport bilan shug'ullanmasdan hayotimning shu nuqtasiga yetganim uchun cheksiz minnatdorchilik bildirishim kerak, men xohlaganimni qila olaman, yaxshi do'stlarim, mehribon insoniy munosabatlarim, butun dunyoda muvaffaqiyatli talabalarim bor va shu paytgacha og'ir kasallikdan uzoqda bo'ldim." ¹⁵. Bu so'zlari orqali undan hayotdan mamnun bo'lish va shukronalik hissi bilan yashash kabi axloqiy fazilatlarni o'rganish mumkin, vaholanki uning hayoti biz ko'rib chiqqanimizdek bir tekisda o'tmagan edi.

Nihoyat, aytish mumkinki, bu nafaqat o'z davrining buyuk sharqshunosining afsonasi emas, ammo butun umrini islom dinining tinch va tasavvufiy jihatini ochib berishga bag'ishlagan bunday shaxsdan o'rganish mumkin bo'lgan ko'p narsa borki, unda ilm jamiyati uchun muhim bo'lgan mehnatsevarlik, samimiylik va fidoyilik kabi xislatlar bor. Uning kitoblari o'quvchilarni umuman islom, xususan, tasavvufiy islom haqida o'qishga undaydi va ilhomlantiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Annemariye Shimmel ijodining she'riy va tarjima jihati, o'z navbatida, aniq estetik jihatga ega. Biz bilgan barcha musulmon tadqiqotchilari orasida Annemariye Shimmel Islomning go'zalliklari haqida eng kuchli estetik tuyg'uga ega edi. Shunday qilib, u keyingi avlod uchun, ayniqsa 1990-yillardan keyin sahnaga chiqqan va musulmon bo'lgan olimlar uchun tayanch nuqtasini yaratdi. Ulardan ba'zilari Shimmeldan shaxsan o'rganish baxtiga muyassar bo'lishgan.

Annemariye Shimmelning umrboqiy faoliyatidan ko'zlangan maqsad islom madaniyatlari va ularning eng muhim she'riy va tasavvufiy yodgorliklarini mutaxassislik doirasidan tashqarida Yevropa va AQSHning ma'rifatli ommasiga yaqinlashtirish va shu orqali islom dinini chuqurroq anglashini uyg'otish edi.¹⁶

Uning ma'naviy merosini respublikamizda ham keng o'rganish, asarlarini tarjima qilish, pedagogik jihatdan tahlil qilish yuksak ma'naviyatli kadrlarni yetishtirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi, deb o'ylaymiz. Qolaversa, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, Annemariye Shimmel shaxsiyatida nafaqat yoshlarimiz, balki yoshi kattalarga ham o'rnak bo'la oladigan jihatlar bor.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Annemarie Schimmel. Morgenland und Abendland. Mein west-oestliches Leben. V.C.H.Beck Muenchen. 2002.
2. Annemarie Schimmel, Deciphering the Signs of God: A Phenomenological Approach to Islam. Gifford Lectures, (Scotland: Edinburgh University Press, 1994).

¹⁴[https://www.iis.ac.uk/news/2003/march/in-memoriam-annemarie-schimmel-1922-2003/Azim Nanji, former Director, The Institute of Ismaili Studies](https://www.iis.ac.uk/news/2003/march/in-memoriam-annemarie-schimmel-1922-2003/Azim%20Nanji,%20former%20Director,%20The%20Institute%20of%20Ismaili%20Studies)

¹⁵Annemarie Schimmel. Morgenland und Abendland. Mein west-oestliches Leben. V.C.H.Beck Muenchen. S 327

¹⁶Schimmel, Annemarie“, in: Neue Deutsche Biographie 22 (2005), S. 777-778 [Onlinefassung]; URL: <http://www.deutsche-biographie.de/.html>

3. Burzine K. Waghmar, "Professor Annemarie Schimmell (April 7, 1922 to January 26, 2003)," *Journal of the Royal Asiatic Society* 1, no. January (2003): 377–79. <https://doi.org/10.1017/S1356186303009866>.
4. Chishti, siddiq ali & Khan, Sharafat. (2023). *Annemarie Schimmel: A Study of her Life and Academic Quest for understanding Islam and Muslim Culture*. Al-Qamar. 1-12. 10.53762/alqamar.06.01.e01.

INTERNET SAYTLARI

1. „Schimmel, Annemarie“, in: *Neue Deutsche Biographie* 22 (2005), S. 777-778 [Onlinefassung]; URL: <http://www.deutsche-biographie.de/.html>
2. <https://magazines.gorky.media/wp-content/uploads/2022/11/nz-144-168-182-weidner.pdf>
3. <https://magazines.gorky.media/wp-content/uploads/2022/11/nz-144-168-182-weidner.pdf>
4. https://www.academia.edu/28225554/Annemarie_Schimmel_In_The_Guardian_6_Feb_2003_p_24?f_r=195817
5. https://www.iis.ac.uk/news/2003/march/in-memoriam-annemarie-schimmel-1922-2003/Azim_Nanji,_former_Director,_The_Institute_of_Ismaili_Studies
6. <https://uz.wiktionary.org>
7. <https://tr.wikipedia.org>